

2021-yil 21-sentabr

Til haqida maqollar va hikmatli so'zlar to'plami

Yomon so'z va achchiq til haqida maqollar

- Achchiq savol berib, shirin javob kutma.
- Achchiq til — zahri ilon, chuchuk tilga — jon qurbon.
- Bemorga shirin so'z kerak, aqlsizga — ko'z.
- Gapi to'mtoqning o'zi to'mtoq.
- Gapi to'ngning o'zi to'ng.
- Yomon so'z egasiga qaytar.
- Yomon so'zlab sovutma, jon og'ritib ovutma.
- Ochiq til osh yedirar, achchiq til — tosh.
- Yomon gapning oyog'i olti.
- Zahar til suyakni yorar.
- Aytilgan so'z — otilgan o'q.
- Anjom uy ziynati, so'z inson ziynati.
- Ariqni suv bezar, odamni — so'z.
- Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.
- Shirin va yaxshi so'zga oid

Donning achchig'i yaxshi, So'zning — shirini.

Yomon gap — bosh qozig'i, Yaxshi gap — jon ozig'i.

Iliq so'z — shakar, Sovuq so'z — zahar.

So'zning boyligi — odamning chiroyligi.

Har kim o'z till bilan tirik.

Bir tavakkal buzadi, Ming qayg'uning qal'asin. Bir shirin so'z bitkazar, Ming ko'ngilning yarasin.

Do'st orttiramam desang, Shirin suhbat qil.

Ovqatni tuz mazali qilar, Odamni — so'z.

Puling bo'lmasa, bo'lmasin, Shirin so'zing bo'lsin.

Shirin so'z shakardan shirin.

Hikmat — bir hovuch oltin.

Ko'zdan ko'zing toysa, So'zdan ko'ngling toyar.

Til haqida hikmatli so'zlar

O'zbek xalqining milliy maqollari juda ko'p, ularning til va unga yaqin bo'lgan mavzulardagi maqollaridan namunalar

Bir yaxshi gap esdan chiqmas, Bir — yomon gap.

Bug'doy noning bo'lmasin, Bug'doy so'zing bo'lsin.

Gapdan gap chiqar, Cho'pdan — xas.

Gap egasini topar.

Birovning o'zi g'ar, Birovning so'zi g'ar.

Gapda g'iybat yomon, Dardda — quyanchiq.

Gapi gapga o'xshamas, Og'zi gapdan bo'shamas.

Gapning yomoni pichir.

Gapning ozi yaxshi, Qizning — nozi.

Yomon gap yer tagida uch yil yotar.

Odam — so'zlashguncha, Yilqi — kishnashguncha.

Til bor, bol keltirar, Til bor, balo keltirar.

Yomonning tili bor, Yaxshining — dili.

Ko'ngilsiz gapning kechikkani yaxshi.

Qo'yning qimmatini — yungida, Odamning qimmatini — so'zida.

Dushman orttiraman desang, Chaqirtikan bo'l.

Yomon til boshga balo keltirar, Yaxshi til davlat, dunyo keltirar.

Dunyoni yel buzar, Odamni — so'z.

Gapning qisqasi yaxshi, Qisqasidan hissasi yaxshi.

Yomon til yo jonga urar,

So'z chumchuq emas, Og'izdan chiqsa, tutib bo'lmas.

Gapni gap ochar, Yomon gapdan qochar.

Yomonning yuzi qursin, Gapirgan so'zi qursin.

Yomon so'zning qanoti bor.

Yomonning yaxshi so'zidan, Yaxshining yomon so'zi yaxshi.

Yomon so'z bo'lmasa, Yaxshi so'z bo'lmaydi.

Issiq kiyim tanni ilitar, Issiq so'z jonni ilitar.

Ovni — oziq bilan, Odamni — so'z bilan.

Yaxshi-yomon so'z va gaplar haqida maqol

- Go'sht-yog' berma, yaxshi til ber.
- Duo bilan el ko'karar, yomg'ir bilan yer ko'karar.
- Duo olgan omondir, qarg'ish olgan yomondir.
- Yo'l quvgan xazinaga yo'liqar, so'z quvgan — baloga.
- Kishining o'zi yetmagan yerga so'zi yetar.
- Kuch egmaganni so'z egar.
- Ko'p gap — eshakka yuk.
- Mazali so'zga quloq charchamas.
- Ma'qul gapga qoruv yo'q.
- Ming chechanni bir ezma yengar.
- Muzdan suv tomar, so'zamoldan — bol.
- Odam so'zi bilan sinalar, osh — tuzi bilan.
- Oz gapir — soz gapir.
- Olim so'zi oz, oz bo'lsa ham soz.
- Orqadagi gap — og'ildagi tezak.
- Og'izga kelgan so'z arzon, ovulga kelgan bo'z arzon.
- Og'rigan joyga qo'l yugurar, og'ritar so'zga til yugurar.
- Pichir-pichirdan o't chiqar.
- Sevdirgan ham til, bezdirgan ham til.
- Sen ham bir og'izdan, siz ham.
- Suv o'z yo'lini topar, so'z — o'z egasini.

Til — dil jarchisi.

Til — aql bezagi.

Til — aql tarozisi.

Suydirgan ham til, Kuydirgan ham til.

Suyaksiz til suyak sindirar.

So'z ko'rki — maqol.

So'z emgak bo'lar, Bo'z — ko'ylak.

So'zdan so'zning farqi bor, O'ttiz ikki narxi bor.

So'z kaltada, Un xaltada.

So'z ojizi bo'lguncha,

So'zda qanquv yomon, Dardda — sanchuv.

So'zdan so'z chiqar, So'zlamasang na chiqar.

So'zlagandan so'zlamagan yaxshiroq, So'zlab edim, boshimga tegdi tayoq.

So'zning onasi — quloq, Suvning onasi — buloq.

Til — dil kaliti.

So'z oyoqdan ilgari borar.

So'zni bir ezmadan so'ra, Bir — kezmadan.

Taom lazzati o'zida. Odam lazzati — so'zida.

Til yaxshisi bor etar, Til yomoni xor etar.

El bor yerda so'z bor.

Tilga ixtiyorsiz — elga e'tiborsiz.

Tig' jarohati bitar, Til jarohati bitmas.

Tuzsiz oshning epi oson, Tuzsiz gapning epi qiyin.

Chin so'z — mo'tabar, Yaxshi so'z — muxtasar.

Toza suvni yer olar, Yaxshi so'zni el olar.

Til tig'i qilich tig'idan o'tkir.

Til — dil tarjimoni.

So'zning yomoni — sanchiq, Dardning yomoni — quyunchiq.

Tayog'i yo'g'on birni urar, So'zi yo'g'on mingni urar.

So'zi nodurustning o'zi nodurust.

Tanballik — kulfat, Mahmadanalik — ofat.

Til yugurigi — boshga, Oyoq yugurigi — oshga.

Tilingda bo'lsa boling, Kulib turar iqboling.

Uzun til — umr zavoli.

Tilga e'tibor — elga e'tibor.

Tilni bog'la dil bilan, Dilni bog'la til bilan.

Uzun til — boshga to'qmoq, Bo'yinga — sirtmoq.

Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar, Yomon gap bilan pichoq qinidan chiqar.

Shirin so'z — qaymoqli ayron, Achchiq so'z — bo'yniga arqon.

Fil ko'tarmaganni til ko'tarar.

Maqollar: til haqida

- To'qson og'iz so'zning to'qsonta tuguni bor.
- Shakar ham tilda, zahar ham.
- Shirin so'z shoh kosasida suv ichar.
- Shirin yuzingdan shirin so'zing a'lo.
- Egasiz qarg'ish egasini topar.
- Eldagi gap — dildagi gap.
- Elni sevsang, elcha gapir.
- Ona tilim — jon-u dilim.

O'z aqling aqlidir, Elning aqli naqlidir.

Yaxshi og'izga — osh, Yomon og'izga — tosh.

Quloqdan kirgan sovuq so'z Ko'ngilga borib muz bo'lar.

O'tarchining nashtari yeng ichida, Zahar xotin nashtari til uchida.

Yaxshi gapga quloq sol, Yomon gapga uloq sol.

Yaxshi so'z bo'ldiradi, Yomon so'z kuydiradi.

Qizil tilim bo'lmasa, qishlar edim elimda. Yashil tilim bo'lmasa, yayrar edim elimda.

Qizil tilim tiyolmadim, Qizimnikiga borolmadim.

source:

"O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkiyosanoat.uz/oz/manaviyat/tilimiz-boyligimiz/til-haqida>